



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №37 (том 2)
(апрель, 2023)



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №37 (том 2) (апрель,
2023). Дата выхода в свет: 03.05.2023.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Артикова Мухайохон Ботиралиевна	доктор педагогических наук, доцент
Батурин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Бекжанова Айнура Мархабаевна	доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Уразова Лариса Карамовна	кандидат исторических наук, доцент
Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент
Худайкулов Хол Джумаевич	доктор педагогических наук

**TOSHKENT VILOYATI BALIQCHILIK XO'JALIGI SUV
HAVZALARIDA KARPSIMON BALIQLAR NEMATODASI VA ULARNI
OLDINI OLISH CHORALARI**

Abduvasikov Islombek Abdurasul o'g'li

Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistri

Safarova Feruza Ergashevna

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaligi suv havzalarida karpsimon baliqlar nematodasi va ularni oldini olish choralari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Nematodoz, karpsimon, parazit, gelmintoz, degelmintizasiya.

Kirish

Baliqchilik sohasi respublika iqtisodiyotida muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Lekin bu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator omillar mavjud. Baliqlarda keng tarqalgan nematodoz va boshqa kasalliklar shunday omillar sirasiga kirib soha rivojiga salbiy ta'sir etib kelmoqda.

Nematodalar - karpsimon baliqlarda parazitlik qilib, gelmintoz kasalliklarni keltirib chiqaradi. Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaligi suv havzalarida 8 turdan iborat nematodalar qayd etildi. Ular karpsimon baliqlarning tana bo'shlig'i, ovqat hazm qilish tizimi va suzgich pufagi devorida parazitlik qiladi. Baliqlarning kuchli zararlanishi oqibatida parazitlar organ va tizimlarda jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va karpsimon baliqlarning o'limiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot obyekti va uslublari.

202021-2023 yillar davomida Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaligi suv havzalaridan tutilgan 197 nusxa karpsimon (sazan, kumush tovon baliq, qizil qanotli baliq, oddiy qizil ko'z, oq do'ngpeshona baliq, oq amur va vostrobryushka) baliqlarning nematodalar bilan zararlanishi aniqlandi.

Baliqlarni turiga va ularni kattaligiga qarab, ularni qorin qismidan kesildi va ichki organlari tekshirish uchun chiqarildi. Baliqda parazitlik qiladigan gelmintlar baliqni jabra, ovqat hazm qilish o'rgani, suzgich pufagi, jigar, yurak va boshqa organlarida parazitlik qiladi va ularda yashaydi. Baliqni ovqat hazm qilish organiga og'iz bo'shlig'i, xalqum, oshqozon, ichak va anal teshigi kiradi.

Material yig'ish va qayta ishlash umumqabul qilingan usullar asosida amalga oshirildi [1, 2]. Baliqlarning zararlanishini baholashda invaziya ekstensivligi (IE – umumiy tekshirilgan baliqlarga nisbatan zararlangan baliqlarning foizi) va invaziya intensivligidan (II – bitta zararlangan individga to'g'ri keluvchi parazitlar sonining o'rtacha arifmetik ko'rsatgichi) foydalanildi. Topilgan parazitlarning tur tarkibini aniqlash uchun «Opredelitelyu parazitov presnovodnykh ryb fauny SSSR» [1] aniqlagichi ma'lumotlariga tayanildi.

Tadqiqot natijalari.

Karpsimon baliqlarda nematodalar Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaligi suv havzalarida tarqalganligi qayd etildi.

Karpsimon baliqlarning umumiy zararlanishi 9.7% ni tashkil etadi. Nematodalar yetarli darajada kumush tovon baliqda 3 (9.3%), zog'ora baliqda 6 (8.5%) va qizil qanotli baliqda 6 (17.4%) tarqalishi qayd etildi.

Kasallik karpsimon baliqlari o'rtasida ikki va uch yoshli baliqlar o'rtasida ko'proq uchraydi (70-85% gacha). Invaziya manbai bo'lib kasal va kasallik tashuvchi baliqlar hisoblanadi. Karpsimon baliqlarning zararlanishi yozda iyun - iyul oylarida kuzatiladi.



1-rasm. Kumush tovon baliqning ichagida topilgan *Raphidascaris acus* nematodasi

Kasallik hovuz xo'jaliklarida, baliq pitomniklarida, hamda ayrim tabiiy suv havzalarida tarqalgan [4]. Kasallangan baliqlar ichida yoshlarining qisman nobud bo'lishi, tana vaznining 15-20 % ga pasayishi, kuchli zararlangan baliqlar mahsulotining yaroqsiz holga kelishi iqtisodiy zararni tashkil etadi.

Qarshi kurash choralari.

Nematodoz kasalliklarini oldini olish uchun veterinariya-sanitariya va tashkiliy tadbirlar uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

Kasallik paydo bo'lgan suv havzalari yoki xo'jaliklar nosog'lom deb e'lon qilinadi. Bunday xo'jaliklardan baliqlarni ko'paytirish uchun boshqa xo'jaliklarga olib chiqishga ruxsat etilmaydi. Xo'jalikda faqatgina tovar maqsadida baliqlarni yetishtirish rejalashtiriladi.

Baliqlarni degelmintizasiya qilish, ularning oziqalariga nilverm 0,5 g/kg dozada qo'shib beriladi [3]. Karpsimon baliqlarini guruhli degelmintizasiya qilish usullari ishlab chiqilgan. Bunda davolovchi nilverm aralashtirilgan donador oziqadan foydalaniladi. Davolovchi oziqa kombikorm zavodlari namga chidamli granula shaklida tayyorlanadi. Bunday granulalar bilan baliqlar 2-3 kun mobaynida oziqalantiriladi. Bahorda va yozda preimaginal degelmintizasiya o'tkazish mumkin.

Xulosa.

Shunday qilib, Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaligi suv havzalarida karpsimon baliqlar orasida keng tarqalgan nematodoz – gelmintoz kasalligi o'rganildi. Ushbu tadqiqot materiallaridan baliqchilik xo'jaliklarida felometroznining doimiy

monitoringini o'tkazish va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авдеев В.В. и др. Определитель паразитов пресноводных рыб фауны СССР. - Ленинград: Наука, 1987. Т. 3. – 583 с.
2. Быховская-Павловская И.Е. Паразиты рыб. Руководство по изучению. - Ленинград:Наука, 1985. - 342 с.
3. Василков Г.В., Грищенко Л.И., Енгашев В.Г. и др. Болезни рыб. – М., 1989. – 288 с.
4. Safarova F.E., Akramova F.D., Azimov D.A., Shakarboyev E.B., Qaxramonov B.A. Baliqlar kasalliklari. – Toshkent, 2019. – 223 b.